

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Х.Хакимов, А.А.Абдумаликов, Ё.З.Нуриддинов**

Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.) ..... 5

**D.E.Normatova, S.N.Muxammadova**

Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari ..... 12

**N.M.Axmadiyev**

Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 15

**Д.А.Исаева**

Влияние медиа на развитие античной философской мысли ..... 18

**I.A.Asatulloev**

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati ..... 22

**O.B.Shokirov**

Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 28

**R.B.Abduraxmonov**

Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 32

**X.J.Toshpo'latov**

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari ..... 36

**A.I.Abdullaxo'jaev**

Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil ..... 39

**I.T.Yuldashev**

Jamiyat ma'nnaviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 43

**A.A.A'zamjonov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari ..... 47

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Ahmad ta'lilotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili ..... 51

**S.F.Abdusattarova**

Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society ..... 55

**S.R.Xoldarov**

Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ..... 60

**Sh.B.Samanova**

Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni ..... 66

**R.Orziboyev**

G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili ..... 70

## SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdag'i imkoniyatlar ..... 74

**Ф.М.Бафоев**

Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике ..... 80

**A.To'xtasinov**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ..... 84

**U.U.Sattarov**

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar ..... 88

**B.T.Shokirov**

Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar ..... 94



**YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISHDA AMALIY SAN'ATNING  
BADIY-IJODIY IMKONIYATLARI**

**ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ  
ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В ПОСТРОЕНИИ ПРОСВЕЩЕННОГО ОБЩЕСТВА  
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**ARTISTIC AND CREATIVE POSSIBILITIES OF APPLIED ARTS IN BUILDING AN  
ENLIGHTENED SOCIETY IN NEW UZBEKISTAN**

**A'zamjonov Axadjon A'zamjonovich**   
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Maqolada Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rnini ijtimoiy-falsafiy-tahsil etishning nazariy asoslari, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning ijtimoiy-kognitiv imkoniyatlari, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atni rivojlanirishning istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiy-ijodiy imkoniyatlari tahsil qilingan.

**Аннотация**

В статье рассматриваются теоретические основы социально-философского анализа места изобразительного и прикладного искусства в построении просвещенного общества в Новом Узбекистане, социально-познавательный потенциал изобразительного и прикладного искусства в построении просвещенного общества в Новом Узбекистане, перспективные задачи развития изобразительного и прикладного искусства в построении просвещенного общества в Новом Узбекистане. Также анализируются вопросы развития изобразительного и прикладного искусства в построении просвещенного общества в Новом Узбекистане.

**Abstract**

The article studies the theoretical foundations of the socio-philosophical analysis of the place of fine and applied arts in building an enlightened society in New Uzbekistan, the socio-cognitive potential of fine and applied arts in building an enlightened society in New Uzbekistan, the future tasks of developing fine and applied arts in building an enlightened society in New Uzbekistan. Also, the issues of developing fine and applied arts in building an enlightened society in New Uzbekistan are analyzed.

**Kalit so'zlar:** ma'rifatli jamiyat qurish, integratsiyalashuv, san'at, ijtimoiy-ma'naviy asos, istiqbol, tasviriy san'at, amaliy san'at, badiy-ijodiy imkoniyat, tizimli-funksional tahsil, nazariy-metodologik asos.

**Ключевые слова:** построение просвещенного общества, интеграция, искусство, социально-духовная основа, перспектива, изобразительное искусство, прикладное искусство, художественно-творческий потенциал, системно-функциональный анализ, теоретико-методологическая основа.

**Key words:** building an enlightened society, integration, art, socio-spiritual basis, perspective, fine arts, applied arts, artistic-creative potential, systemic-functional analysis, theoretical-methodological basis.

**KIRISH**

Badiiy adabiyot vogelikni har tomonlama aks ettirish imkoniyatlari kengligi tufayli inson ma'naviy dunyosini butunlayicha, eng muhimi, uning harakatdagi va rivojlanishdagi holatlari bilan birga qamrab oladi. Yozma so'zning buyuk sohiblari (o'zbek adabiyotida Navoiy, Mashrab, Qodiriy, Oybek, Cho'lon va ko'plab boshqalar) inson ichki dunyosining butun rango-rangligi, boyligi, murakkabligi ajoyib mahorat bilan ifodalash qobiliyatiga ega bo'lganliklari ma'lum. Inson ruhi va qalbining doimiy oqimda harakatlanib turishi holatini yengil va erkin, oddiy va murakkab, yorqin va tushunarli tarzda ifodalash imkoniyatlarining kengligi jihatidan badiiy adabiyotga teng keladigan san'at turi yo'q desak yanglishmaymiz. Inson ma'naviy olami o'ziga xos yaxlit birlikni tashkil etgan bo'lib, uning doirasida fikr va tuyg'u, oqil va sezgili omonlar chambarchas chirmashib ketgan bo'ladi. Badiiy adabiyot bu aloqadorlikni sezgilik bilan fahmlab oladi va odamlarga badiiy ifoda vositalarida yetkazib beradi. Badiiy adabiyotning ta'sir kuch-qudrati shundaki, kechinmalar va his-

tuyg'ular oqimini hammadan oldin fahmlab oladi, ularni umumlashgan, saralangan va mujassamlashgan tarzda namoyon qiladi. Adabiy asarning qiymati faqat unda muayyan kechinmalar aks ettirilishi bilan cheklanmaydi, balki ularning boy mazmuni va ulkan ahmiyatiligi bilan ham o'lchanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

San'atning ma'nnaviy asoslari va ijtimoiy funksiyalari, san'at tarbiyasi va uning ma'nnaviy imkoniyatlari bo'yicha P.Van Xauve, Dj.Kerven, Y.Jak-Dalkroz, L.Daniel va F.Lissek, R.Myunnix, D.Karomatli, E.B.Abdullin, B.M.Teplov, A.N.Soxor, V.G.Mozgot, V.I.Petrushin, B.V.Asafev, V.Beloborodova, T.V.CHerednichenko, S.F.Gurbanalieva, E.Abdulin, Y.Bodina, N.Ivanov, A.Nizamov, V.Rajnikov, F.Xalilov, D.Soipova, O.A.Ibrohimov, D.Karimova, R.Xonazarova, S.Maxmudova, M.S.Muxtidinova, Z.Oripov, SH.Omanqulova, Q.Panjiev, R.Azizov, X.A.To'raqulov, M.Xojsdaeva, G.SHaripova, U.Y.Yuldashev kabi olimlar tadqiqot olib borgan.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Inson kechinmalari hamma vaqt uning voqelikka munosabati bilan bog'liq bo'lib, yozuvchi, shoir, dramaturg o'z asarlarini ana shu kechinmalar va his-tuyg'ular bilan boyitadi, ular orqali u yoki bu tarzda odamni, tabiatni, umuman hayotni, inson ma'nnaviy-huquqiy boyligini, go'zalligi va xunukligini, ulug'veriligi va foydalilagini, kulgililigi va ezguliligini namoyon qiladi.

So'z vositasida yaratilgan obraz (obraz) umuman badiiy obrazga xos bo'lgan belgilarga ega bo'ladi va o'zining mazkur jihat bilan tasviriy (tasviriy san'at, haykaltaroshlik, chizma rasm) obrazlariga juda yaqin turadi. So'z bilan yaratilgan obraz narsalarning to'g'ridan to'g'ri tuyg'uli timsolini ifodalashga bog'lanmagani tufayli tasviriy obrazdan farq qiladi. U narsalar, odamlar, voqealarni badiiy o'zlashtirish, lirik tur kayfiyat yoki ruhiy holat, dramatik tur harakat bilan bog'liq holda amal qilgan edi. Bu uch badiiy ijod turlarining barcha belgilari badiiy aks etish uchun zarur bo'lgan voqelik bilan chambarchas bog'liqdir.

Badiiy adabiyot san'at turi sifatida o'zining ichki tizimiga, o'ziga xos tur, xil, ko'rinishiga, uslubiga ega. Masalan, o'zbek badiiy adabiyotidagi adabiy ijod, uning epik, lirik, dramatik ijod turlarini bu o'rinda misol qilib keltirishimiz mumkin. Epik tur, avvalo, voqealarni badiiy o'zlashtirish, lirik tur kayfiyat yoki ruhiy holat, dramatik tur harakat bilan bog'liq holda amal qilgan edi. Bu uch badiiy ijod turlarining barcha belgilari badiiy aks etish uchun zarur bo'lgan voqelik bilan chambarchas bog'liqdir.

Badiiy adabiyotning epik turida voqelik keng va ko'ptomonli holda qamrab olinadi, inson xulq-atvorini shakllantriradigan va uni harakat qilishga undaydigan shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq tarzda bayon qilinadi. Unda tashqi olam qonuni hukmronlik qiladi. Tasvirlanayotgan voqelikka, narsalarga muallif munosabati, odatda, bayon qilish uslubi asar tarkibi ichiga yashiringan bo'ladi. Epik asar hamma vaqt erkin yozma bayon (insho) usulida ifodalanadi, unda ko'proq tasvirlash ustunlik qiladi. Epik asar mazmuni, tasviriy qismlar, qahramonlarning fikr mulohazalari va kechinmalari tasviri orqali namoyon bo'ladi.

Epik adabiyotda voqelik tasvirning kengligi, mufassalligi, hayot manzaralarini yaxlit yaratishga intilish, voqealar tasvirini bayon qilish tarzi bu turning badiiy-shakliy belgilarini ham izohlaydi. Tasvirning bayon tarzi, uning batafsilligi, qismlarning nisbiy mustaqilligi, harakat sodir bo'lishining asta-sekinligi, asar badiiy tizimining erkin tarkib topishi, harakatning tugal emasligi kabi belgililar shular jumlasidandir. Epik asarlar o'z mazmuni va shakliy belgilari jihatidan nasriy ifodaga moyil bo'lib, unda to'la va jozibali bo'y ko'rsatadi.

Badiiy adabiyotning epik turi muayyan badiiy sifat ham kasb etadi. SHu bois ba'zi san'at asarlarda nisbatan «Epik roman», «Epik kenglik», «Epik osoyishtalik» kabi iboralar qo'llaniladi. Badiiy asar epikligini muayyan inson taqdirini his ettirish va uni davr ma'nnaviy hayotining bir qismi sifatida tasvirlash qobiliyatini nazarda tutadigan badiiy dunyoqarashning maxsus turi deyish mumkin. Adabiyotning epik turi haqida so'z yuritganda, o'zbek adabiyotida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Firdavsiyning «SHohnoma», Navoiyning «Xamsa»siga kiritilgan «Hayratul abror», «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari, A.Qodiriyning «O'tkan kunlar», Cho'lpionning «Kecha va kunduz», Oybekning «Navoiy», Primqul Qodirovning «Bobur», «Humoyun va Akbar» kabi asarlari ko'z o'ngimizda gavdalananadi. Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Navoiy dostonlarida epik mazmunni nazm shakllarida bayon qilish mahorati barq urib tursa, Qodiriy romanidagi nasriy bayonni epik mazmunning lirik ohangdag'i ifodasi deb baholashimiz mumkin. «O'tkan kunlar»da epik mazmunlar lirik ohangi boshdan oyoq chin insoniy his-tuyg'u ramzi, pok sevgi timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy dostonlarida esa epik mazmun

## FALSAFA

lirika (she'r)da ifoda topishi shoirning «Xamsa» yaratish an'anasiga to'la rioya qilganligi tufayli vujudga kelgan bo'lsa, Qodiriy, Oybek, Pirimqul Qodirov romanlarida, aksincha, nasriy shaklda lirik mazmun aks ettirilgandir.

Epic adabiyot ko'proq nasriy bayonga mo'ljallangan holda lirik adabiyot asosan nazm orqali bayon etiladi. Agar epik asarlarda voqelikning keng manzarasi-tashqi olam ruhi hukmon bo'lsa, lirik adabiyotda ko'proq inson ichki holati ifodalanadi. Aristotel ta'kidlaganidek, lirik adabiyot muallifi o'zi yaratgan asari bilan yaxlit birlikni tashkil qiladi va bunda o'zligini ham saqlab qoladi. Ba'zan, lirikada tasvir tomonlar zaif holda aks etib, ko'proq muallif fikr va tuyg'ulari ifodalanadi. Bu uning voqelikni aks ettirishning muhim shakli bo'lib qolishiga halal bermaydi. Lirik adabiyotda tashqi dunyo bevosita emas, bilvosita, ya'ni fikr va tuyg'ular orqali aks ettiriladi. Shoirning shaxsiy fikr va tuyg'ulari o'zi yashab turgan davrning ilg'or fikr va tuyg'ulariga hamohang tarzda umumxalq, umuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Bunga Yassaviy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxtumquli, Furqat, Cho'lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov lirkasi yorqin misol bo'ladi.

Lirikada fikr bilan tuyg'u chirmashib, tutashib ketadi. Unda sezgi bilan bezangan, his-tuyg'ular bilan to'lib toshgan fikr bevosita kechinmalar shaklda namoyon bo'ladi. Lirika olam va inson haqidagi eng murakkab, eng teran fikrlarni ifodalash qudratiga ega bo'lib, unda «falsafiy lirika» muhim o'rinn tutadi. Masalan, Jaloliddin Rumi, Sa'diy, Umar Hayyom, Lutfiy, Pahlavon Mahmud, Jomiy, Navoiy, Mashrab, Abduqodir Bedil, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov lirkasi asarlarida falsafiy umumlashtirishlar shu qadar kuchli va teran ifoda topganki, ular mohiyat-mazmun jihatidan hatto, ba'zi bir muxsus yaratilgan falsafiy risolalardan qolishmaydilar. Bu lirik xazinada jozibali va ehtirosli his-tuyg'u katta ifoda kuchi orqali sayqal topib, lirik-falsafiy ma'nodorlik kasb etadi.

Lirika bevosita tasvir uslubidan foydalananmasligi jihatidan musiqa va raqsga yaqin bo'ladi, o'zining so'z bilan qat'iy birligi tufayli u inson ma'naviy hayotining hamma qirralarini ifodalash imkoniyatiga egadir.

Badiiy adabiyotning ko'pgina asarlari bir vaqtning o'zida ham epic, ham lirik tur belgilariga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiyotida Cho'lpon va Usmon Nosir, Abdulla Oripov va Erkin Vohidov lirkasida badiiy uslub xilma-xilligidan qat'iy nazar ular ijodida lirik va epic tomonlar qorishmasi mavjudligini ko'ramiz. Ularning ham lirik, ham epic asarlar yaratishga moyilliiklari mantiqiy tarzda bu shoirlar ijodida dramaturgik turni paydo qildi.

Badiiy adabiyotning dramaturgiya turi, avvalo, sahnalaشتirishga mo'ljallangan asarlar bo'lib, uni ham adabiyot turi, ham teatr qismi deb ataydilar. Bu tur hayotning dramatik lahzalari va tomonlari yanada to'laroq aks ettirish talab-ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo'lib, har qanday dramatik asar asosini ziddiyat (konflikt) tashkil qiladi. Drama asarlarida kundalik hayotning tub o'zgarishlarga moyilligidan dalolat beruvchi tomonlarini to'laqonli ochib berish mavzui asosiy o'rinn egallaydi.

Dramatik asarlarda o'z oldilariga aniq-ravshan mahsad va vazifalar qo'yan irodali kishilar yuzma-yuz kelib to'qnashadilar. To'qnashuv qudrati esa ko'p jihatdan iroda namoyon bo'lishi va uning ifoda kuchiga bog'liq bo'ladi. Dramatik to'qnashuv xususiyati o'z navbatida dramatik harakat xususiyatini belgilab beradi. Dramatik harakatda esa inson ruhiy tahlili, uning fikr-tuyg'usi, insoniy sifatlari namoyon bo'ladi.

Dramatik asarlarda hayot uyg'unligi to'la namoyon bo'lar ekan, dramatik harakat mumkin qadar faoliikka, bir maqsadga yo'nalganlikka, tomoshabinga bevosita ta'sir o'tkazishga intiladi. Bu esa suhbat (dialog) orqali amalga oshadi. Suhbat jarayonida har bir so'z, voqe'a-hodisa, har bir xatti-harakat, ibora boshqa odam (suhbatdosh)ga faol ta'sir o'tkazish sifatida o'rinn egallaydi.

Badiiy adabiyotning turlari o'z navbatida bir necha xil va ko'rinishlarga bo'linadi. Ular epic turda xalq eposi, epic doston, roman-epopeya, roman, qissa; lirik turda-qasida, tuyuq, ruboiy, g'azal, mustahzod, she'r; dramatik turda-fojia (tragediya), komediya, drama kabilardir. Ular har birin janr deb atash ham qabul qilingan bo'lib, mazmun umumiyligi, hayotiy hodisalar tanlovi, g'oyaviy-estetik baholanganligi, his-tuyg'uli ta'sir kuchi bilan izohlanadi. Har bir janr o'ziga xos belgilari, badiiy vositalar majmuining nisbiy qaror topganligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Janrlar tarixiy tushunchalar bo'lib, u yoki bu janrlarning namoyon bo'lishi, o'zgaruvchanligi ijtimoly-tarixiy omillar bilan belgilanadi. Janrlarda tarixiy davr, turmush tarzi, odamlar xulq-atvori aks etadi. Har bir tarixiy davr o'zining janr tizimini vujudga keltiradi. Mazkur janrlar majmuida esa davr badiiy obraxsi namoyon bo'ladi.

San'atdagi «notekislik» qonuni adabiy janrlar rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Odatda, har bir davrda u yoki bu janrlar tizimi yetakchilik qiladi. Hozirgi davrda roman, qissa, hikoya, esse,

maqolanimislik (publitsistika), lirik she'r, drama, komediya kabi janrlar tizimi amal qilinmoqda. Shular orasida roman alohida ahamiyat kasb etmoqda. Roman adabiy jarayonda maxsus o'rin egallab, o'zida epik asar xususiyatlari-batafsillik, lirik-falsafiy teranlik, to'lqinlashtiruvchanlik, dramatik asarga xos keskinlik, lo'ndalikni mujassamlashtiradi. Roman san'atning boshqa turlari va janrlari vositalari va imkoniyatlarini o'z bag'riga singdirib yubora oladi, hatto fan, dunyoqarash, hujjatshunoslik kabi estetik bo'limgan faoliyat sohalarini ham o'z ichiga qamrab olishi mumkin.

### XULOSA

Badiiy adabiyot san'atning barcha turlariga ta'sir o'tkazib keldi va hozir ham o'tkazmoqda. Badiiy adabiyot ta'siridan holi bo'lgan badiiy ijod sohasi yo'q bo'lib, unda ilk bor qalamga olingan mavzu, g'oya, ohang, obraz, xulq-atvor keyinroq san'atning boshqa turlariga ham ko'chishi mumkin. San'atning teatr va kino kabi sintetik-aratash turlariga ham badiiy adabiyot ilk asos vazifasini bajaradi. Nihoyat, san'at taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xos bo'lgan badiiy qorishma vujudga kelishida ham adabiyot asosiy uyg'unlashtiruvchi va jamlovchi omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Миллий истиқбол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар.- Тошкент, «Ўзбекистон», 2000, 64-65 бет.
2. Миноваров З. Ўзбекистон Республикасида дунёвийлик ва динийлик ўртасидаги янги нисбатнинг шаклланиши. // Ислом ва дунёвий-маърифий давлат. / Масъул муҳ. Мунавваров З.И., В.Шнейдер-детерс. Тошкент: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси; Фридрих Эберт жамғармаси. 2003.-138 б.
3. Самуэль Браунбэк. Бу заминда кўплаб миллату элатлар, турли дин ҳамда эътиқод вакиллари ўзаро тинч-тотув ва ҳамжихат яшаётгани эътирофга лойик. Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 19 сентябрь № 193 (7151).
4. Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э. Эстетика. –Т.: Узинкомцентр, 2003, С.10-13
5. Хаджаев У.Ш. Ёшларнинг инновацион тафаккурини шакллантиришда шарқона маънавий-ахлоқий императивларнинг ўрни. // фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент.: УзМУ, 2019. –Б. 28.
6. Худойшукоров З. Инновацон ривожлантириш стратегияси мамлакат тараққиётини белгилайди. // Халқ сўзи. 2018 йил 26 сентябрь.